

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QISH VA MATNNI TUSHUNISHGA O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Охунова Мо‘nisaxon Umidbek qizi**

Farg‘ona davlat universiteti 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va matnni anglashga o‘rgatishning strategik bosqichlari va ularning nazariy ahamiyati yoritilgan.

**Abstract:** This article discusses the strategic stages of teaching elementary school students to read and understand text and their theoretical significance.

**Аннотация:** В данной статье описаны стратегические этапы обучения учащихся начальных классов чтению и пониманию текста и их теоретическое значение.

**Калит so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, o‘quvchi, o‘qituvchi, matn, hikoya, o‘qish, strategiya, bosqich, tushunish.

**Keywords:** primary school, student, teacher, text, story, reading, strategy, stage, comprehension.

**Ключевые слова:** начальная школа, ученик, учитель, текст, рассказ, чтение, стратегия, этап, понимание.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qish va matnni tushunishga o‘rgatish ta‘lim jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu bosqichda bolalarning o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi, matnni tushunish qobiliyati rivojlanadi va kelajakda muvaffaqiyatli ta‘lim olishlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qish malakasining yetarli darajada shakllanmaganligi o‘quvchilarning umumiy akademik natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni tushunish strategiyalari ishlab chiqildi. Bu ilmiy atamaga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, matnni tushunish strategiyalari – bu o‘quvchilar matn mazmunini anglashi uchun qo‘llaniladigan ongli rejalaridir. Ushbu strategiyalar o‘quvchilarga maqsadga yo‘naltirilgan, faol o‘quvchilar bo‘lishga va o‘z o‘qish jarayonini nazorat qilishga

yordam beradi. Bu strategiya 7 bosqichdan iborat bo'lib, u matnni tushunishni yaxshilash bo'yicha ilmiy asoslangan dalillarga ega.

**1-bosqich. Tushunishni nazorat qilish.** Matn mazmunini yaxshi tushunadigan o'quvchilar qachon matnni anglayotganlarini va qachon anglamayotganlarini biladilar va qaysi o'rinda voqealar rivojida ongli ravishda g'alizlik yuzaga kelganini aniqlaydilar. Matnning bu qismiga qaytib, o'quvchilar o'z malakalariga tayangan holda anglanmagan ma'lumotlarni tushunish usullarini ishlab chiqadilar. Shunday qilib ular tushunmovchilik yuzaga kelganida uni bartaraf etish uchun o'z yo'nalishlariga ega bo'ladilar. Tadqiqotlarda kelib chiqib aytish mumkinki, hatto boshlang'ich sinflarda ham bu boradagi ta'lim o'quvchilarning tushunish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi.

**2-bosqich. Metakognitsiya.** Metakognitsiya – bu “fikrlash jarayoni haqida fikr yuritish” degan ma'noni anglatadi. Yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar matnni anglash jarayonida metakognitiv strategiyalardan foydalanadilar va o'z o'qishlarini boshqara oladilar. O'qishdan oldin o'quvchilar o'qish maqsadini aniqlaydi va matnni oldindan ko'zdan kechiradi. O'qish jarayonida ular o'z tushunishlarini nazorat qiladi, matn murakkabligiga qarab o'qish tezligini moslashtiradi va tushunmovchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi. O'qib bo'lgandan so'ng o'qiganlari ustidan fikr yuritib, matnni to'liq tushunganliklarini tekshiradilar va yakunida umumiy xulosa yasaydilar. Qayerda qiyinchilik yuzaga kelganini aniqlaydilar. Masalan: *“Men 76-betdagi ikkinchi xatboshini tushunmadim. Muallifning “Toshkentga kelish buvimning hayotidagi muhim bosqich bo'ldi” degan gapidan nima nazarda tutilayotganini anglamayapman”*.

Keyin esa o'qituvchi murakkab jummalarni oddiy so'zlar bilan qayta aytishlariga ko'maklashadi. *“Demak, muallif Toshkentga kelish buvisi uchun juda muhim voqea bo'lganligini aytmoqchi”*.

**3-bosqich. Grafik va semantik vositalar.** Grafik vositalar – bu matndagi tushunchalar va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadigan vizual tasvirlardir. Bular xarita, diagramma, grafik, jadval, ramka yoki klaster kabi nomlar bilan tanilgan. Grafik

vositalar yordamida o'quvchilar fikr va tushunchalarni aniq tartibga solish, badiiy va ilmiy matn tuzilmalari o'rtasidagi farqlarni tushunish, matn mazmunini tahlil qilish va o'zaro bog'lanishlarini ko'rish, matndan mantiqiy ravishda xulosa chiqarish imkoniga ega bo'lalilar. Masalan:

**Venn diagrammasi** – ikki manbani taqqoslash uchun ishlatiladi. Masalan, ikkita qahramonning farqlarini solishtirish va o'xshash tomonlarini aniqlash.

**Zanjir shaklida tasvirlash** – hodisalar ketma-ketligini aniqlash uchun qo'llanadi. Bu matn mazmunini qisqa, aniq va lo'nda ifodalashga yordam beradi. Masalan, tish yuvish bosqichlarini yozish.

**Hikoya xaritasi** – hikoya tuzilishini aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, badiiy hikoyada qahramonlar, muammo va yechimni aniqlash.

**Sabab-ta'sir diagrammasi** – sabab va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlaydi. Masalan, quyoshda uzoq qolish quyosh kuyishiga olib kelishi mumkin.

**4-bosqich. Savollarga javob berish.** Savol-javob metodi an'anaviy metodlar sirasiga kirsa-da, ko'plab yaxshi natijalar keltiradi. Savollar o'quvchilarda o'qish maqsadini aniqlash, e'tiborlarini asosiy fikrlarga qaratish, o'qiganlari ustida faol fikrlash, tushunishlarini baholash va oldingi bilimlari bilan bog'lash ko'nikmasini shakllantiradi. Savol-javobni turli usullar orqali amalga oshirish mumkin.

“**To'g'ridan-to'g'ri javob**” – matndan aniq javob topish.

“**O'yla, izla, top!**” – ma'lumotni turli joylardan yig'ish.

“**Muallif va men**” – o'quvchining shaxsiy tajribasiga asoslangan javob.

“**Fikrlang...**” – faqat shaxsiy bilimlarga asoslangan javob.

**5-bosqich. Savollar tuzish.** O'quvchilar o'zlari savollar tuzganlarida, matnni tushunish darajalarini baholashadi. Ular o'qigan matn bo'yicha asosiy g'oyalarni ajratib, muhim jihatlarni bog'laydilar.

**6-bosqich. Hikoya tuzilishini aniqlash.** O'quvchilar hikoyaning tarkibiy qismlarini (qahramonlar, joy, voqealar, muammo, yechim) aniqlashni o'rganadilar. Hikoya xaritalaridan foydalanish matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**7-bosqich. Xulosa chiqarish.** Xulosa chiqarish o'quvchilarni asosiy g'oyalarni aniqlash, muhim ma'lumotlarni bog'lash, keraksiz ma'lumotlarni chiqarib tashlash, o'qiganlarini eslab qolishga o'rgatadi.

Ushbu strategiya yordamida o'quvchilar matnni anglash va yodda saqlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar, o'qish malakasining yetarlicha shakllanmaganligi esa umumiy akademik natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, matnni tushunish strategiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qish jarayonini samarali boshqarishga, asosiy g'oyalarni aniqlashga va o'qiganlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Ushbu strategiyalar yetti bosqichdan iborat bo'lib, har biri bolalarning tushunish qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan. Jumladan, har qaysi bosqich o'quvchilarga matnni chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar amaliyotga tadbiiq etilganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi, bu esa ularning kelajakdagi ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.Gulamova, Sh.Yuldosheva, G.Xolboyeva "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021.
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent «NOSIR» nashriyoti - 2009.
3. Aminova F. H. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: O'zPFITI. 2007.
4. Aslonova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020.
5. <https://www.readingrockets.org/topics/comprehension/articles/seven-strategies-teach-students-text-comprehension>

6. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-matni-o-qish-va-tushunish-sifatini-o-rganish-pirls-baholash-mezoni-asosida/viewer>